

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK

*DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI XORIJIY TIL**VA ADABIYOTI YO'NALISHI**4-KURS TALABALARI**Turdiyeva Fotima**Amirova Husnobod**Ibrohimova Nozima**Qurbanova Dildora*

Annotatsiya: Ushbu maqola lingvomadaniyatshunoslik fanining asosiy tushunchalari va ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rGANADIGAN fan bo'lib, turli millat va elatlar madaniyati til orqali qanday ifodalanishini tadqiq qiladi. Maqolada til birliklarida ifodalangan madaniy ma'lumotlarning shakllanishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda tilning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar kesishgan nuqtada rivojlanib, muloqot jarayonida milliy madaniyatni anglash va madaniyatlararo tushunishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Til va madaniyat, til birliklari, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, muloqot jarayoni, milliy madaniyat.

Abstract: This article is dedicated to highlighting the main concepts and importance of linguistics. Linguistics is a science that studies the relationship between language and culture, and how the culture of different nations and peoples is expressed through language. The article examines the formation of cultural information expressed in language units, the interaction of language and culture, as well as the role and importance of language in intercultural communication. Linguistics develops at the intersection of such disciplines as

linguistics, cultural studies, sociology, and serves to strengthen understanding of national culture and intercultural understanding in the process of communication.

Key words: *Language and culture, language units, sociology, linguistics, cultural studies, communication process, national culture.*

Lingvomadaniyatshunoslik sohasiga XIX asrda V. Fon Gumboldt o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri” kitobi bilan tamal toshini qo‘ygan bo‘lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “turli tillar, o‘z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg‘uga ta’siriga ko‘ra amalda turlichcha dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o‘ziga xos xususiyatlari millatning o‘zligiga ta’sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o‘rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog‘lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan [Gumboldt 1985: 370, 377]. Shu tariqa, olim tilning turli shakllarida turlichcha hissiyot va tafakkur uslublarini ko‘radi. Demak, tilda madaniy o‘ziga xoslik aks etib turadi, degan xulosaga keladi. V.Gumboldtning g‘oyalari XIX-XX asrlardan neogumboldtchilar tomonidan rivojlantirildi. A.A.Potebnya tilni faoliyat sifatida talqin etdi. L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolts XX asr o‘rtalarida fikrlash mundarijasining tuzilishi va fikrlarning mantiqiy qatori tilga bog‘liq ekanligi haqidagi muammoni ko‘tarib chiqdilar. Neogumboldtchilar tilning ichki mundarijasiga alohida e’tibor qaratdilar, turli tillarning semantik jihatlarini tekshirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqladilar. L.Vaysberger “olamni verballashtirish” tushunchasini olib kirdi. Unga “dunyonи til orqali anglash jarayoni va tafakkur obyektiga aylantirish”, – deb ta’rif berdi. Shuningdek, olim “yangi grammatika”ni yaratish vaqtি kelganligini ta’kidladi. Bu soha tilning mazmuniy tomoniga qaratilgan bo‘lishi va tilni “harakatdagi kuch” sifatida baholashi kerak edi [Guxman 1961: 129-130, 154]. Amerika tilshunoslari E. Sepir va B.L.Uorf lisoniy mansublik gipotezasini ilgari surdilar. Unga ko‘ra til bilish jarayonida eng asosiy rolni o‘ynaydi. Shimoliy Amerika hindulari tilini o‘rganish natijasida olimlar til kategoriyalari fikrlash darajasiga ham ta’sir

qiladi, degan xulosaga keldilar. Lisoniy mansublik gipotezasiga ko‘ra, turli tillarda turli kategoriyalarning uchrashi shu til egalari borliqni turlicha konseptuallashtirishlarini bildiradi. XX asr davomida mazkur olimlarning fikrlari turli tanqid va qarshiliklarga duch keldi. Hozirgi kunda bu yo‘nalish yana tilshunoslarning diqqat markazida. 1990-yilda D. Lyusining «Language Diversity and Thought» (“Lisoniy har-xillik va tafakkur”) [Lucy 1992] va P. Lining «Whorf Theory Complex» (“Uorf nazariyalari yig‘indisi”) [Lee 1996] kabi kitoblari dunyo yuzini ko‘rdi. 1998-yil Duysburg (Germaniya) universitetida «Humboldt and Whorf Revisited. Universal and Culture-Specific Conceptualizations in Grammar and Lexis» nomi ostida xalqaro simpozium o‘tkazilgan bo‘lib, unda tilda inson omili va lisoniy mansublik fenomenini tadqiq etishning yangi yondashuvlari o‘rtaga tashlandi.

Rus tilshunosligida V.A.Maslovaning darsligida lingvokulturologik tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlari tavsiflanadi, metodologik asosi yaratilgan. V.V.Vorobyovning «Lingvomadaniyatshunoslik: teoriya i metody» [Vorobyov, 1997] nomli tadqiqoti gumboldtchilik nazariyasi asosiga qurilgan bo‘lib, tilda o‘z aksini topgan madaniyatni o‘rganish Sepir-Uorf gipotezasi asosida amalga oshirilgan, L.Vaysberger terminlaridan faol foydalanilgan edi. Tadqiqotda lingvomadaniyatshunoslik lingvoo‘lkashunoslik sohasining nazariy asosi sifatida tadqiq etiladi, sohaga “til va madaniyat munosabatlari, aloqalarini tilni vazifalarida tekshiruvchi, bu jarayonni tizimli metodlar hamda zamonaviy yo‘nalish, madaniy qoidalarga ko‘ra birliklarning lisoniy va nolisoniy (madaniy) mundarijasiga jamlab, bir butun tizimi sifatida aks ettiruvchi kompleks bilimlar majmui” deb ta’rif beradi [Vorobyov 1997: 36-37]. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy o‘rganish obyekti sifatida “til va madaniyatning o‘zaro aloqaga kirishgan vaqtdagi o‘zaro bog‘liqligi va bu munosabatning bir butun sistem holatda talqin qilish”, fanning predmeti esa, “jamiyat turmushining til kommunikatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan va madaniy qadriyatlarga asoslangan milliy shakllari”, “olamning lisoniy manzarasi”ni hosil qiluvchi barcha narsadir, deb baholaydi. V.V. Vorobyov

lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi – lingvokulturema tushunchasini olib kiradi va unga “lisoniy va nolisoniy (tushuncha va predmet) mazmunning dialektik birligi”, – deb ta’riflaydi. [Vorobyov 1997: 44-45].

O‘zbek tilshunosligida shu vaqtga qadar til va madaniyat uzviyiligiga e’tibor berilmagan, deyishadolatdan emas, albatta. O‘zbek tilshunoslik ilmining tamal toshini qo‘ygan va uni rivojlantirishga jiddiy hissa qo‘sghan olimlarning ishlarida bu muammo xususidagi fikrlar u yoki bu munosabat bilan aytib o‘tilgan. Lekin shuni ta’kidlash joizki, tilshunosligimizda tilning lingvokulturologik tahlilini jiddiy va tizmmiy ravmshda amalga oshirish ishlariga endigina kirishilyapti. XXI asrning dastlabki yillaridan o‘zbek tilshunosligida ham antroposentrik tahlil ko‘rinishlarini namoyon qiluvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kogamтив tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalari bo‘yicha bajarildi. Mazkur tadqiqotlar, garchi ularda antroposentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo‘lsa-da, o‘zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hmsoblanadi. Shuningdek, ularda tilimmzning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va anganalarimiz bilan bog‘liq jihatlari haqida ham ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvomadaniyatshunoslik nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baholash mumkin. Jumladan, S.M. Mo‘minovning "O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbeklarning o‘ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog‘liqligi xususidagi qarashlar ham o‘rin olganki, buni til tizimiga antroposentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. S.M. Mo‘minov, jumladan, shunday yozadi: "MX (muloqot xulqi — D.X.) muammosini milliy xarakter, millat aholisining o‘ziga xos urf-odatlari, qadriyat va an’analalarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o‘rganish mumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir". Olim XX asrning 2-yarmidan ijtimoiy fanlarning o‘zaro yaqinlashganligi

natijsasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi tutash fanlar yuzaga kelganligini ta'kidlar ekan, "inson nutqini fanlarning mana shu kabi tutash nuqtasida tadqiq etish" fikrini ilgari suradi. Prof. Sh.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi ayni sohaga oid nazariy qarashlarning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo'ldi. Kitobning ustuvor jihatlaridan biri shundaki, unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan bog'liq ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Sh.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur aloqasini "teng huquqli hamkorlik" darajada ko'rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta'sir o'tkazadigan madaniyatadir".limning ikki yil avval e'lon qilingan "Semantika" nomli monografiyasida lingvomadaniyatshunoslik, xususan, lingvomadaniy konseptga doir nazariy qarashlar yanada keng talqin etildi. Monografiyaning "Konsept va ma'no" deb nomlangan 8- bobida muallif konsept xususidagi turli qarashlarni chuqur tahlil etib, ularga o'z munosabatini bildirgan. Olimning "Konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar" degan xulosasi bugungi kun lingvokonseptshunosligida usguvor bo'lган qarashlar bilan hamohangdir

Xulosa

Lingvomadaniyatshunoslik madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi, madaniyat ta'sirida til qanday shakllanishini va rivojlanishini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Ushbu soha orqali har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlari, qadriyatları va tarixiy tajribasi til tizimida qanday ifodalanganini tahlil qilish mumkin. Til va madaniyat bir-biriga chuqur bog'liq bo'lib, til orqali milliy o'ziga xoslik, madaniy meros va dunyoqarash aks ettiriladi. Lingvomadaniyatshunoslik nafaqat tilni o'rganishni, balki madaniy kodlarni anglash va shu orqali xalqning ichki dunyosini tushunishni ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М., 1985.
2. Епир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ. в. 1. М., 1960.
3. Vorobyov 1997: 36-37].
4. ucy 1992
5. uxman 1961: 129-130, 154